

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI TARBIYALASHDA
CHO'G'U ASBOBLARINI O'RGATISH

D.Nosirov.

Qo'qon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Bolalarni tarbiyalashda musiqaning roli hamda bolalar bog'chalarida bo'lajak musiqa rahbarlarining zamon talablari asosida musiqiy mashg'ulotlarni olib borishiga qaratilgan. Maqolada ilmiy, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar majmuasi bilan tanishtirib, ularda uslubiy ko'nikma hamda malakalarni tarkib toptirishda yaqindan yordam beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktabi, o'qitish metodikasi, san'at va madaniyat, maktab musiqa fani, uslubiy tavsiya, an'ana, odat, marosim, qo'shiq, odob ta'lim, bilim san'at, qobiliyat.

Annotation: the role of music in raising children as well as children it is aimed at the fact that Future Music leaders in their kindergartens conduct musical training based on the requirements of the Times. The article introduces a complex of scientific, scientific-theoretical and practical knowledge, which will help closely in the composition of methodological skills and qualifications.

Keywords: preschool educational institutions, general education school, teaching methodology, art and Culture, School music science, methodological recommendation, tradition, custom, ritual, song, etiquette education, cognitive art, ability.

Аннотация: роль музыки в воспитании детей, а также детей направлено на то, чтобы в детских садах будущие музыкальные руководители получали музыкальную подготовку в соответствии с требованиями времени. Статья знакомит с комплексом научных, научно-теоретических и практических знаний, тесно помогает в формировании в них методических навыков и компетенций.

Ключевые слова: дошкольные учреждения, общеобразовательная школа, методика обучения, искусство и культура, школьная музыкальная наука, методическая рекомендация, традиция, обычай, обряд, песня, этикет воспитание, знание искусства, способности.

O'zbekistonning kelajagini, ertasini yosh avlodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yosh avlodni tarbiyasida musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tqazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Demokratik jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Demak, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rni borligi ayni haqiqat, bolani estetik tarbiyalashdek sharafligini to'g'ri yo'lga qo'yish bizga, ya'ni, Bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuqalaydi. Musiqa – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulqan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb yetadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa san'ati va ta'lim-tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan insonning ichki olamini boyitadigan, iymon-e'tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg'otadigan qudratli kuch – ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyatini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy boy, ma'naviy va qat'iy ahloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va

qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak, deb hisoblagan. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta'limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o'qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir mashg'ulotning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o'ylashga o'rgatishdir. Musiqa san'atining ahamiyati musiqa shunday san'at turiqi, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb atash mumkin. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bug'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarinig ahamiyati beqiyosdir. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go'zalliqqa intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir. Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi.

Uslubiy darslikdagi tavsiya etilayotgan ko'rsarmalar, jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm-shavqat kabi hislar musiqiy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan va mashg'ulot jarayonida kuyidagi ijrochilik malakalarini shakllantirish zarur. Tovushni to'g'ri ohangda ijro etish, musiqa ostida Ritmik harakatlarni ifodali bajara olish, cholg'u asboblarning tovushiga ko'ra ajrata olish va ularni aniq uslublarda, bolalar cholg'u asboblarda chalishga o'rgatishdan iborat. Musiqiy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning qabul qilish tushunish, yaxshi va yomonni ajrata olish, mustaqil ijodiy ishlashlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Estetik tarbiya vositalaridan biri musiqa hisoblanadi. Musiqa ushbu kerakli funksiyani bajarishi uchun bolada umumiy musiqaviylikni paydo qilish kerak bo'ladi. Eng avvalo, bolada xarakterini xis qilish musiqa asarining kayfiyatini bilish, emotsional munosabatni paydo qilish musiqaviy obrazni tushunish qobiliyatlarini paydo etish kerak. Musiqa tinglovchini hayajonlantiradi, javob reaksiyasini paydo qiladi, hayotiy voqelik bilan tanishtiradi. Ritmik marsh musiqasining yangrashi unda ko'tarinkilik quvonch paydo qilsa, kasal qo'g'irchoq yoki oyog'i uzilgan ayiqcha haqidagi qo'shiq esa uni qayg'urishga majbur qiladi.

Musiqa – aqliy qobiliyatni rivojlantirish vositasi. Musiqaviy qabul qilish aqliy jarayon bilan boliq, ya'ni diqqatni, Kuzatuvchanlikni anglashni talab qiladi. Bolalar musiqa asarining ijrosini eshitadilar, tovushlarning eshitalishi turlarini taqqoslaydilar, badiiy obrazlarning xarakterli jihatlarini, asarning tuzilishini aniqlaydilar. Musiqaviy asar ijro etilgandan so'ng, bolalar tarbiyachining savollariga javob beradilar, asarning umumiy xarakterini aniqlaydilar, ularning so'zlariga, mazmuniga e'tibor beradilar. San'atning boshqa turlari kabi musiqa ham o'ziga xos xususiyatga ega. Unda bolada yangi tasavvurlarni boyitadigan hayotiy kechinmalar aks etadi. Masalan, bolalar O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasini eshitganda Vatanga nisbatan muhabbat, sadoqat, yurtimiz bilan ururlanish xissini sezadilar. Bolaning estetik va aqliy ongini o'stirishda u hali anglay olmaydigan ijodiy tushunchalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi. Kattalar bolalar oldiga ijodiy vazifa qo'ygan vaqtda bolada aqliy faollik talab etadigan

izlanuvchanlik faoliyati paydo bo`ladi. Musiqa inson ruhiyatiga turlicha ta'sir etib, har bir inson uni o`z tushunchasi, idroki bilan qabul qiladi. Musiqaning quvnoq eshinishi xalqlarning tinchligini, shodligini bildirsa, mayin musiqalar esa xalqning qayg`usini, tashvishini bildiradi. Musiqa kishi hayotida doimo hamohangdir. U kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtiradi, hamfikir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 yildagi 391-son qarori,
2. Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities* 12.9 (2022): 126-130.
3. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.10 (2023): 127-132.
4. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 51-57.
5. Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: .429 10.10 (2023): 68-74.
6. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.10 (2023): 127-132.
7. QOBILOVA, E'ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." *Journal of Positive School Psychology* 7.2 (2023).

8.E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo'qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722

9.E'zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166

10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999>

11.E.Qobilova.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT)Orcid: 0009-0001-1275-3080

12. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son* 383-bet SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT

13.Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.02 (2024): 44-49.

14.Qobilova, Ezozxon. "The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons." *Uzbekistan Educational Research Journal* 1.1 (2024).

15.Qobilova, E. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish." *Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar* (2024